


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3979,9 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **89,6 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1057,7 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **96,8 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **26,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **-28,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3979,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 89,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 87,8 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida – 89,0 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 106,0 % ni va SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 48,4 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar–aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020–yilning yanvar–aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 428,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,8 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmi – 2,5 m.ni, gaz kondensati – 119,9 % ni, neft qazib olish – 127,9 % ni, qum – 96,8 % ni va chaqiq tosh – 140,5 ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2019–yil yanvar–aprel oylarida ishlab chiqarilgan | Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2020–yil yanvar–aprel oylarida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|--|
| Tabiiy gaz, mln. kub m. | | | |
| 334,0 |  | 858,4 | 2,5 M.  |
| Gaz kondensati, ming t. | | | |
| 78,3 |  | 93,3 | 119,1  |
| Neft, ming t. | | | |
| 7,0 |  | 8,9 | 127,9  |
| Qum, ming t. | | | |
| 31,9 |  | 30,8 | 96,8  |

| 2019–yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan | Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2020–yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan | O’sish sur’ati, % da |
|---|---|---|----------------------|
| Chaqiq tosh, ming t. | | | |
| 29,9 | | 41,9 | 140,5 ↑ |


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2771,1 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 69,6 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %

O’tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining ulushi 0,1 % ni, o’rta-yuqori texnologiyali – 32,0 %, o’rta – quyi texnologiyali – 2,8 % va quyi texnologiyali – 65,1 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 73,2 % ni, trikotaj polotnolar – 2,1 m. ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 107,8 % ni, ip-kalava – 151,7 % ni, plastmassa quvurlar – 112,5 % ni, alkogol ichimliklar – 3,2 marta ni, kaliy xlorid – 104,8 % ni va polietilen – 92,8 % ni tashkil etdi.

*Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| 2019-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % da |
|--|---|--|---|
| Paxta tolasi, t. | | | |
| 26635,0 |  | 19499,0 | 73,2  |
| Trikotaj polotnolar, t. | | | |
| 437,0 |  | 934,1 | 2,1 M  |
| Yumshoq bug`doy va spelta uni, t. | | | |
| 47234,1 |  | 50901,8 | 107,8  |
| Ip-kalava, t. | | | |
| 9289,0 |  | 14092,0 | 151,7  |
| Plastmass quvurlar, t. | | | |
| 1637,8 |  | 1843,0 | 112,5  |
| Alkogol ichimliklar, ming litr | | | |
| 846,0 |  | 2714,9 | 3,2 M  |

| 2019-yil yanvar–aprel oylarida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar – aprel oylarida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|---|
| | Kaliy xlorid, ming t. K2O  | | |
| 62,4 | | 65,4 | 104,8  |
| | Polietilen, ming t.  | | |
| 46,8 | | 43,4 | 92,8  |



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

2020-yil yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 754,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,0 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 25,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 31,9 % ga oshganligini, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizasiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 80,9 % ga kamayganligi kuzatildi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

2020-yilning yanvar–aprel oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1057,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,8 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,6 % ni tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2020-yil yanvar–aprel oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq–ovqat mahsulotlari – 57,8 %, nooziq–ovqat mahsulotlari – 40,0 %, va oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,2 % tashkil etdi.

Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2019-yil



2020-yil



■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari

■ Oziq-ovqat tovarlari ■ Nooziq-ovqat tovarlari


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 678,6 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 17,1 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarning sanoatning umumiyligi hajmidagi ulushi, %

2020–yil yanvar–aprel




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiyligi hajmida tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarning ulushi 52,0 %, ishlab chiqarilgan sanoat korxonalari ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush G'uzor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 20,3 %), Nishon tumani (19,8 %), Qarshi shahri (18,0 %), Muborak (6,0 %), Koson (5,8 %) va Qarshi (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2020-yilning yanvar–aprel oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Shahrисабз (3,9 %), Kasbi (3,8 %), Qamashi (2,5 %), Mirishkor (2,4 %), Yakkabog' (2,4 %), va Chiroqchi (2,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan G'uzor tumani 808,3 mlrd. so`mni, Nishon tumani 787,5 mlrd. so`mni, Qarshi shahri 716,7 mlrd. so`mni va Muborak tumani 237,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.

***2020–yilning yanvar–aprel oylarida shahar va tumanlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi***



**2020-yilning yanvar–aprel oylarida shahar va tumanlar bo`yicha
sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2019–yil yanvar–aprel oylariga nisbatan,
% da**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil chora–tadbirlar natijasida Kasbi tumanida (2019–yil yanvar–aprel oylariga nisbatan 121,7 %), Shahrisabz shahrida (112,7 %), Chiroqchi tumanida (109,8 %), Qamashi tumanida (106,5 %), G`uzor tumanida (105,7 %), Shahrisabz tumanida (104,8 %) va Dehqonobod tumanida (101,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo`yicha istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`sish sur`ati


| | Mlrd. so`m | 2019-yil yanvar-aprelga nisbatan o`sish, % |
|-----------------------------|---------------|--|
| Qashqadaryo viloyati | 1057,7 | 96,8 |
| Qarshi sh. | 339,4 | 95,0 |
| Shahrisabz sh. | 68,4 | 86,0 |
| tumanlar: | | |
| G'uzor | 25,7 | 97,7 |
| Dehqonobod | 17,2 | 100,0 |
| Qamashi | 52,3 | 98,9 |
| Qarshi | 44,3 | 103,2 |
| Koson | 93,9 | 80,1 |
| Kitob | 62,8 | 105,0 |
| Mirishkor | 24,2 | 101,4 |
| Muborak | 22,6 | 102,2 |
| Nishon | 26,9 | 100,7 |
| Kasbi | 28,7 | 97,4 |
| Chiroqchi | 58,4 | 98,7 |
| Shahrisabz | 99,1 | 97,0 |
| Yakkabog` | 93,8 | 124,1 |

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Yakkabog` tumanida (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 124,1 % ni), Kitob tumanida (105,0 % ni), Qarshi tumanida (103,2 % ni), Muborak tumanida (102,2 % ni), Mirishkor tumanida (101,4 % ni), Nishon tumanida (100,7 % ni), Dehqonobod tumanida (100,0 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (iste`mol tovarlari hajmida 32,1 %), Shahrisabz tumanida (9,4 %), Koson tumanida (8,9 %), Yakkabog` tumanida (8,9 %) va Shahrisabz shahrida (6,5 %) ni tashkil etadi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nishon tumanida (5155,5 ming so'm), G'uzor tumanida (3965,0 ming so'm), Muborak tumanida (2736,6 ming so'm) va Qarshi shahrida (2600,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat 1210,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1138,2 mlrd. so`mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 28,6 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qamashi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kasbi tumanida (100,0 %), Kitob tumanida (93,6 %), Shahrisabz shahri (84,7 %), Yakkabog` tumanida (70,1 %), Chiroqchi tumanida (68,5 %), Mirishkor tumanida (58,2 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush G'uzor tumanida (3,1 %), Nishon tumanida (3,3 %), Dehqonobod tumanida (10,2 %) kuzatildi.


2020-yilning yanvar-aprel oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 3,4 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 689 tasi Qarshi shahrida, 412 tasi Kitob tumanida, 310 tasi Yakkabog` tumanida, 298 tasi Shahrisabz shahrida, 280 tasi Chiroqchi tumanida, 274 tasi Qarshi tumanida, 203 tasi Qamashi tumanida, 187 tasi Shahrisabz tumanida, 192 tasi Koson tumanida, 172 tasi G`uzor tumanida, 125 tasi Nishon tumanida, 115 tasi Kasbi tumanida, 88 tasi Mirishkor tumanida, 74 tadan Muborak, 71 tasi Dehqonobod tumanlarida joylashgan.

2020-yil 1-may holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 265 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 43 tasi Qarshi shahriga, 28 tasi Chiroqchi tumaniga, 30 tasi Kitob tumaniga, 23 tasi Yakkabog` tumaniga, 18 tasi Qamashi tumaniga, 17 tasi Shahrisabz shahriga, 16 tasi Qarshi tumaniga, 15 tasi Kasbi tumaniga, 14 tasi Nishon tumaniga, 12 tasi G`uzor va Koson tumanlariga, 10 tadan Shahrisabz, Muborak va Mirishkor tumanlariga, 7 tasi Dehqonobod tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi

Tel.: (75) 221-32-36